

O'QUV JARAYONIDA AXBOROTNI SHAKLLANTIRISH VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH

Begmuratova Dilnoza Amaliddinovna

GulDU tayanch doktoranti

E-mail: begmuratovadilnoza@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11478745>

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali axborot kompetentsiyasini, axborotni har qanday shakllari bilan samarali ishlash uchun kerak bo'ladigan bilimlar umumiyliigi, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarning mavjudligi, axborot muhitida o'zining o'rnini bilishi, axborot resurslarini iste'mol qilish va yaratish bilan bog'liq bo'lgan normalar, qadriyatlar umumiyliigi va kasbiy faoliyatni reproduktiv va ijodiy darajada bajara olish kabi insonning muhim kompetensiyalaridan biri sifatida tariflash mumkin degan xulosaga keldik.

Kalit so'zlar: kompetensiya, online muloqot, multimediali ta'lim vositalari, axborot muhiti.

ФОРМИРОВАНИЕ ИНФОРМАЦИИ И ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЕЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация. В данной статье информационная компетентность определяется как совокупность знаний, умений, умений и умений, необходимых для эффективной работы с информацией в любой форме, знания своего места в информационной среде, потребления и создания информационных ресурсов, к которым мы пришли. делается вывод о том, что ее можно отнести к одной из важных компетенций человека, таких как нормы, общечеловеческие ценности и способность осуществлять профессиональную деятельность на репродуктивно-творческом уровне.

Ключевые слова: компетентность, онлайн-коммуникация, мультимедийные образовательные средства, информационная среда.

FORMATION OF INFORMATION AND EFFECTIVE USE OF IT IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. Through this article, information competence is related to the totality of knowledge, skills, abilities and abilities needed to effectively work with information in any form, to know one's place in the information environment, to consume and create information resources. We have come to the conclusion that it can be classified as one of the important human competencies, such as the generality of related norms, values, and the ability to perform professional activities on a reproductive and creative level.

Key words: competence, online communication, multimedia educational tools, information environment.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish, pedagog kadrlar sifatini ilg'or xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni inobatga olgan holda tizimdagi pedagoglarni kasbiy standartlariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu masala "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonunda o'z aksini topdi. Jumladan Qonunning 42-moddasida muhim jihatlaridan biri –"Pedagogning kasbiy standarti" keltirib o'tilgan [1]. Unga

ko‘ra standartni qo‘llanilishi, pedagogning shahsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko‘nikmalaridan ajralmas bo‘lgan talablarni belgiladi. Pedagogning malaka toifasi ham aynan mana shu standartga muvofiq berilishi ushbu modda bilan mustahkamlab qo‘yildi.

Maktabgacha ta‘lim tizimining faoliyatini samaradorligini oshirish o‘z navbatida uning moddiy-texnika bazasiga, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlanganlik darajasiga, ta‘lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta‘lim dasturlari va ilmiy asoslangan nazariyadan foydalanish, bolalarni har tomonlama rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitga bog‘liqligini inobatga olgan holda 2016-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori imzolandi [2]. Buning natijasida muqobil dasturlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish orqali maktabgacha ta‘lim va bolalarni maktabga tayyorlash sifati tubdan yaxshilandi.

Tadqiqotchi A.I.Rakitov, axborot jamiyatini vujudga kelishini tadqiq etgan holda, axborot texnologiyalarining tarqalishi, fikrlash uslubini, hayot tarzini, insonning ijtimoiy muhitdagi moslashuvi usullarini o‘zgarishiga o‘ziga xos ravishda hissa qo‘shadi deb ta‘kidlaydi [3;746-753 b].

O‘quv jarayonida axborotni shakllantirish va undan samarali foydalanish kelgusida talabalarning axborot bilan ishlash kompetentsiyalarini rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talabalarning kasbiy va axborot kompetentsiyasini ularning egallagan ko‘nikma, qobiliyat va qadriyatlarida namoyon bo‘ladigan vakolatlar sifatida e‘tirof etish mumkin. “Kompetentsiya” tushunchasi talabanning nazariy va amaliy tayyorgarligini, kasbiy faoliyatini amalga oshirishga imkoniyatlarni yaratadi. Axborot bilan ishlash kompetentsiyasi ko‘p qirrali va yaxlit tushuncha sifatida uch guruh kompetentsiyalarni o‘z ichiga oladi.

birinchi guruh - asosiy (axborot texnologiyalari) har qanday sohadagi mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan kompetentsiyalar:

- shaxsiy, professional, semantik qadrlash qobiliyati;
- axborot, axborot jarayonlari haqidagi ilmiy bilimlar tizimiga ega bo‘lish, zamonaviy jamiyat tizimlari va texnologiyalari;
- axborotni qidirish, tizimlashtirish, qayta ishlash, saqlash usullariga ega bo‘lish, axborot almashish usullari;
- axborotning har xil turlari va manbalari bilan ishlash qobiliyati;
- shaxsiy axborot faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish qobiliyati;
- mavjud axborotni strukturalashning turli usullariga ega bo‘lish, axborotlar (matn, diagrammalar, grafiklar, taqdimotlar ko‘rinishida);
- onlayn muloqotning turli shakllaridan foydalanish qobiliyati (chat, Skayp va boshqalar); oflayn rejimlar (elektron pochta, forumlar, bloglar va boshqalar).

Ikkinchi guruh - kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan (pedagogik) kompetentsiyalar. Talabanning kasbiy faoliyatida ajralib turadigan xususiyatlar:

- kasbiy ahamiyatga ega pedagogik izlanish va natijalarni tizimlashtirish qobiliyati, elektron ommaviy axborot vositalari va internetdagi axborotlar (entsiklopediyalar, axborot va ma‘lumotnomalar, darsliklar);

- talabalarning axborot bilan ishlashda multimediali ta'lim vositalaridan foydalangan holda muloqot qilish faoliyati;

- ta'lim-tarbiya berishda axborot resurslarini yaratish va talabalarning o'quv va kognitiv faoliyatida qo'llash qobiliyati;

- zamonaviy axborot resurslari, axborotlardan foydalanish qobiliyati va ta'limni variativ modellashtirish uchun kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayoni;

- axborot bilan ishlashda evristik va tadqiqot yondashuvlarini amalga oshirish qobiliyati; talabalar faoliyatida turli axborot manbalarini qo'llash qobiliyati.

Uchinchi guruh - o'z-o'zini rivojlantirish uchun talabalar:

- talabalarning axborot ta'lim-tarbiya maydonidagi o'z-o'zini anglash va rivojlantirish borasida to'siqlarni aniqlash va ularni engish qobiliyati;

- foydalanilayotgan axborot resurslarini tahlil va bashorat qilishga tayyorligi, kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi o'quv jarayonini ishlab chiqishning innovatsion modelini shakllantirish va loyihalash;

- o'z-o'zini namoyon qilishga, o'z-o'zini rivojlantirishga va takomillashtirishga tayyorlik, umumiy va kasbiy jihatdan kasbiy - pedagogik faoliyatida axborot bilan ishlash.

Talabalarning axborot bilan ishlash kompetentsiyalarini rivojlantirishning shartlari bo'lib:

- axborot texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarni boyitish;

- axborot bilan ishlashda kommunikativ, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish;

- yagona axborot-ta'lim makonida, masalan mamlakat, hudud, OTM va boshqalarda ta'lim jarayonining turli sub'ektlari o'rtasida interaktiv muloqotlarni amalga oshirish hisoblanadi [4;280-284 b].

Oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan bo'lajak tarbiyachilar kelajakda, bolalarning o'sib borayotgan shaxsiyatini hayotga tayyorlashni, odob-ahloq me'yorlari va milliy, oilaviy, shaxsiy qadriyatlarini rivojlantirish, boshqalar bilan o'zaro munosabatga kirish, muloqot qilish bilan bog'liq vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishni ta'minlash uchun ma'lum kompetentsiyaga ega bo'lishi kerakligini nazarda tutadi.

REFERENCES

1. Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Қонуни. ЎРҚ-595-сон. - Т.: 2019 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 29 декабрдаги “2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2707-сон қарори.
3. Ракитов А.И. Прогноз развития науки и технологии в России на период до 2025 года // Вестник РАН. - М., 1998. - № 8. - С.746-753.
4. Дедюхина А.А. Педагогические условия формирования информационной компетентности будущих учителей начальных классов [Текст] / А. А. Дедюхина // Теория и практика образования в современном мире: материалы междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, февраль 2012 г.). - СПб.: Реноме, 2012. — С. 280-284.